

## KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI

*Gadayeva Mohigul Muxamedovna*

*Osiyo Xalqaro Universiteti "Tarix va filologiya" kafedrasи assistenti*

**Annotatsiya:** Bu ilmiy-nazariy, tahliliy maqolada kreativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari haqidagi fiklar ban etilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** didaktik ta'minot, xususiy metodika, o'qitish usullari, o'quv materiallari, o'qitish tamoyillar, kreativlik

В данной научно-теоретической аналитической статье раскрываются мнения о механизмах создания дидактического обеспечения, основанного на креативном подходе.

**Ключевые слова и понятия:** дидактическая поддержка, частная методология, методы обучения и материалы, дидактические принципы, творчество.

Kreativ o'zi nima? Creato lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik ma'nolarini anglatadi. Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdek tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud Davlat ta'lim standartlari (DTS) ga moslashtirish, qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi :

- umumiy nazariy bosqich;
- o'quv bosqichi;
- o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi.

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan)lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnama, tavsiyanoma va shu kabilar)da aks etishni ta'minlanadi.

Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O'quv materiallarini o'quvchilarga taqdim etishda savolning «Agarda ...?» deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham ob'ektiv, ham sub'ektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Kreativlik o'quvchilarda «nafaqat yangi

g‘oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o‘quv masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko‘nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta’lim olish, o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan o‘quvchilar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha o‘quvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo‘sinqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo‘llaniladi.

Pedagoglarning o‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko‘rishlari kutilgan ta’limiy natijaning qo‘lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi;
- o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o‘quv axborotlarining asoslanganligi;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini – faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- o‘quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va – kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo‘lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo‘lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud bilim, ko‘nikma, malakan ni mustahkamlashga xizmat qilishi.

O‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o‘quv manbalari (darslik, o‘quv, metodik va o‘quv-metodik qo‘llanma, yo‘riqnomalar, tavsiyanoma, lug‘at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o‘rinda olingan ma’lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o‘quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar o‘quvchilarning umumiyligi va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. - T.: «Turon Iqbol». 2006.



2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiyy pedagogika. Darslik. - T.: «Navro‘z» nashriyoti, 2016.
4. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: «Fan», 2008.
5. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010.

**Ishtirokchi anketasi**

<b>Mualifning FISH</b>	Gadayeva Mohigul Muxamedovna	
<b>Shahar</b>	Buxoro	
<b>Ish joyi</b>	Osiyo Xalqaro Universiteti	
<b>Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni</b>	Assistant	
<b>Maqola nomi</b>	KREATIV ASOSIDA <b>MATERIALLAR</b> <b>MEXANIZMLARI</b>	YONDASHUV DIDAKTIK <b>YARATISH</b>
<b>Sho’ba nomi</b>	<b>1-sho’ba</b> - ‘Hayot davomida ta“lim” paradigmasi diskursida yangi metodikalarga o,rgatish muammolari.	
<b>E-mail</b>	mohigulgadayeva@gmail	
<b>Telefon</b>	941247090	

